

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK TAMOIYILLARI

Ro'zmetova Mehriyo Nuraddin qizi

Buxoro xalqaro universiteti o'qituvchisi

e-mail:ruzmetovamexriyo.01@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kommunikativ kompetensiyalarni tadqiq etish jarayoni ko'p qirrali bo'lib, turli psixologik yondashuv va nazariyalar asosida izohlanadi. Bu yondashuvlar kursantlarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda qaysi metodlarning samarali ekanini aniqlashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: kommunikativ kompetenentlik, psixologik tamoyil, muloqot, empatiya

KIRISH

Psixologik adabiyotlarda kommunikativ kompetensiyaning struktura va tarkibiy qismlari keng yoritilgan bo'lib, ular ko'pincha verbal hamda noverbal muloqot ko'nikmalari, ijtimoiy moslashuv qobiliyatlari, nizolarni konstruktiv tarzda hal qilish va murosaga kelish imkoniyatlarini o'z ichiga oladi. Tadqiqotchilar bu elementlarning har biri kursantlarning shaxsiy va kasbiy hayotida qanday rol o'ynashini o'rganib, ularga ichki hamda tashqi omillarning ta'sirini aniqlashga alohida e'tibor qaratganlar.

Adabiyotlarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda empatiya, faol tinglash qobiliyati va hissiy holatlarni boshqarishning o'rni alohida ta'kidlanadi. Empatiya – bu suhbatdoshning hissiyotlarini tushunish va ular bilan ruhiy hamjihatlik qilish qobiliyati bo'lib, samarali muloqot uchun asosiy omil sanaladi. Tinglash mahorati esa suhbatdoshni to'liq anglash va tushunishga yordam berib, muloqotning sifatini sezilarli darajada oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA ADABIYOTLAR TAHLILI

G'arb olimlari shaxslararo hamkorlikning mohiyatini tushuntirishga bag'ishlangan qator nazariyalarni ilgari surishgan. Jumladan, Dj. Xomans tomonidan ishlab chiqilgan almashinuv nazariyasi (teoriya obmena) [14], Dj. Mid asos solgan simvolik interaksionizm [21], E. Goffmanning taassurotlarni boshqarish nazariyasi (upravlenie vpechatleniyami) [74], shuningdek, Z. Freydning psixoanalitik nazariyasi [72] bu borada alohida o'rin tutadi. Ushbu nazariyalar shaxslararo munosabatlarni tushuntirishda turli nuqtai nazarlarni taklif qiladi va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish jarayonida muhim nazariy asos vazifasini bajaradi.

Almashinuv nazariyasi nuqtai nazaridan qaraganda, odamlar o'zaro hamkorlik jarayoniga kirishganda ular avvalo ushbu hamkorlikdan olinadigan foyda va yo'qotishlarni o'z tajribasi asosida taqqoslaydilar. Mazkur nazariya to'rtta asosiy tamoyilga tayangan holda izohlanadi: birinchidan, qandaydir xatti-harakat qanchalik mukofotlanadigan bo'lsa, u shunchalik tez-tez qaytariladi; ikkinchidan, agar mukofot olish uchun ma'lum shart-sharoit talab qilinsa, inson bu sharoitni yaratishga intiladi; uchinchidan, mukofot qancha katta bo'lsa, uni qo'lga kiritish uchun kishi shuncha ko'p kuch sarflashga tayyor bo'ladi; to'rtinchidan, inson o'z ehtiyojlarini qondirishga qanchalik yaqinlashsa, ularni qondirish uchun sarflanadigan kuch shuncha kamayadi. Dj. Xomansning [1] izohlariga ko'ra, ushbu nazariya murakkab ijtimoiy hamkorlik shakllarini – hukmronlik, muzokara jarayonlari, liderlik kabi hodisalarni tushuntirishda samarali bo'lib, ijtimoiy munosabatlarni foyda va zararlarining o'zaro muvozanati asosida yuzaga keladigan almashinuv tizimi sifatida sharhlaydi.

Dj. Mid o'zining simvolik interaksionizm nazariyasida [2] muomala jarayonining interaktiv jihatlariga alohida urg'u beradi. Olim inson xatti-harakatlarini axborot almashinuvi asosida shakllanuvchi ijtimoiy hodisa sifatida ko'radi. U kishilarning faqat tashqi xatti-harakatlariga emas, balki shu harakatlarga sabab bo'luvchi ichki maqsadlariga ham e'tibor qaratadi. Midning fikricha, biz odatda odamlarning xatti-harakatlariga qarab, o'z tajribamiz asosida ularning fikrlarini «o'qishga» intilamiz. U imo-ishoralarni ikki turga bo'ladi [3] birinchisi

– ahamiyatga ega bo'lmagan, reflektor harakatlar (masalan, qosh qoqish); ikkinchisi

esa – mazmunli imo-ishoralar bo‘lib, ular orqali inson boshqa odamning maqsadini tushunishga va uning rolini qabul qilishga harakat qiladi. Bu jarayonda odam boshqani o‘z o‘rniga qo‘yib ko‘rish qobiliyatini rivojlantiradi.

E. Goffman tomonidan ilgari surilgan taassurotlarni boshqarish nazariyasi [4] ijtimoiy hamkorlikni teatr sahnasidagi spektaklga qiyoslaydi. Unga ko‘ra, odamlar ijtimoiy munosabatlarda o‘zlari haqida ijobiy taassurot uyg‘otishga va uni doimiy ravishda saqlab qolishga intiladilar. Shunday qilib, har bir inson ijtimoiy «aktyor» sifatida boshqalarga o‘z obrazini ma’lum bir shaklda taqdim etadi.

Z. Freydning psixoanalitik nazariyasiga ko‘ra [5], shaxslararo munosabatlarning mohiyati insonning bolalik davrida shakllangan tasavvurlar va u davrdagi ziddiyatlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Freydning ta’kidlashicha, odamlar liderlarga bo‘ysunishga intiladilar, chunki ular ong ostida ota-onalar yoki oldingi avlod tomonidan e’zozlangan buyuk shaxslar bilan qiyos qilinadi. Bu jarayonda regressiya, ya’ni rivojlanishning ilk bosqichiga qaytish holati yuzaga keladi. Bunday hodisa ayniqsa norasmiy yoki uyushmagan guruhliy faoliyatda yaqqol ko‘rinadi. Olimning fikricha, guruhda aniq kutishlarning yo‘qligi liderlik mavqeini mustahkamlaydi. Shaxsiy motivatsiya tuzilmasida esa anglanmagan mayllar, ya’ni ehtiyoj va emotsional kechinmalar bilan bog‘liq xatti-harakatlar muhim o‘rin tutadi. Freyd [6] bu mayllar tarkibiga qarama-qarshi jins vakillariga nisbatan o‘z-o‘zini tasdiqlash, taqlid qilish, o‘yin faoliyatiga va muloqotga intilish kabi xususiyatlarni kiritadi.

Rus tilining izohli lug‘atlarida «kompetensiya» atamasining kelib chiqishi lotincha *competens* so‘ziga borib taqaladi va ikki asosiy ma’noda talqin qilinadi: birinchisi – ma’lum bir organ yoki mansabdor shaxsga berilgan vakolatlar doirasi; ikkinchisi esa – shu shaxs bilim va tajriba asosida yaxshi o‘zlashtirgan masalalar sohasi. T.H. Hohova o‘z tadqiqotida «kompetensiya» hamda «kompetentlilik» tushunchalari o‘rtasidagi farqlarni tahlil qilib, ularning mazmuniy chegaralarini belgilashga harakat qilgan. Shu bilan birga, olima kommunikativ kompetensiyaning maqsadlari, turlari, tarkibiy tuzilishi hamda darajalarini guruhlariga ajratib, ilmiy asoslarini ko‘rsatib bergan [7].

V.M. Myasishev muomala va shaxs ruhiy tuzilishi haqida fikr yuritarkan, inson psixikasi yaxlit tizim bo‘lib, uning shakllanishi sabab va natija munosabatlari asosida

yuzaga chiqishini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, shaxsning muloqot malakasi hamda boshqa insonlar bilan munosabatlari uning ichki olamida aks etadi va shaxsiy tajribaga bog'liq holda tashqi borliqni idrok qilish usullarini belgilaydi. Olimning ta'rifida, munosabatlar insonning qiziqishlari, his-tuyg'ularining kuchi, xohish va ehtiyojlarini ifodalab, xulq-atvorda, harakatlarda va ruhiy kechinmalarda o'z aksini topadi. Shaxslararo muloqot esa turli darajadagi faollik, tanlovchanlik va ijobiy- salbiy xususiyatlar orqali namoyon bo'ladi. Muomala shakllarini tasnif etishga uringan Myasishev [8] ularni ikki turga bo'ladi: birinchisi – kishilar o'rtasidagi murojaat shaklining mos kelishi; ikkinchisi – muomala shakli bilan shaxslararo munosabatlarning keskin farqlanishi.

Shaxsning nutqqa ta'sirchanligi va muomala samaradorligi tadqiqotlarda muhim jihat sifatida ko'rsatilgan. Bu holat ko'p jihatdan odamning tashqi ta'sirlarga beriluvchanligi, qayta ishonirish imkoniyati bilan bog'liq. Shaxsning moyilligi esa doimiy barqaror xususiyat emas, balki insonlararo o'zaro munosabatlar natijasi sifatida shakllanadi.

A.A. Bodalev [9] o'z tajribaviy izlanishlarida ijtimoiy mayl va muomala samaradorligi o'rtasidagi aloqalarni ochib beradi. Unga ko'ra, odamlar ko'pincha muayyan guruh vakiliga duch kelganda, shu guruhga xos xususiyatlarni avtomatik ravishda ushbu shaxsga ham taalluqli deb qabul qiladilar. Bunday stereotipik idrokdan xalos bo'lish esa murakkab psixologik jarayon ekanligi ta'kidlanadi.

N.I. Shevandrin shaxslararo muomalaning uch shaklini ko'rsatadi. Birinchisi – **imperativ muloqot** bo'lib, u avtoritar va direktiv tusga ega. Bu holda suhbatdoshning xatti-harakatlari va fikrlari qat'iy nazorat qilinadi, unga ma'lum qarorlarni qabul qildirish maqsadi ko'zlanadi. Bunday muloqotda sherik passiv obyekt sifatida qaraladi, vosita sifatida esa buyruqlar, talablar va ko'rsatmalardan foydalaniladi. Imperativ muloqot ko'proq harbiy soha, favqulodda vaziyatlar yoki rahbar-bo'ysunuvchi munosabatlari uchun xos bo'lsa-da, oilaviy, shaxsiy-intim yoki pedagogik munosabatlarda mutlaqo mos kelmaydi. Ikkinchi shakl – **manipulyativ muloqot** bo'lib, u yashirin tarzda suhbatdoshni o'z maqsadiga yo'naltirishga asoslanadi. Bunda ham shaxsning fikr va xatti-harakatlarini nazorat qilishga intilish kuzatiladi. Manipulyativ muloqot ko'proq biznes va ishbilarmonlik muhitida uchraydi.

MUHOKAMA

So‘nggi yillarda shaxslararo muloqot jarayonida uchraydigan psixologik qiyinchiliklar masalasi ko‘plab mutaxassislarning e‘tiborini tortmoqda. Turli ilmiy adabiyotlarda bunday qiyinchiliklar turlicha tasniflanadi va ularni yuzaga keltiruvchi omillarni guruhlariga ajratishga bo‘lgan ilmiy intilishlar ham xilma-xil yondashuvlarda izohlanadi. Jumladan, G.G. Kamardina muomala davomida paydo bo‘ladigan to‘siqlarni temperamentdagi nomutanosiblik, xarakter bilan bog‘liq qiyinchiliklar, aksentuatsiyalar, muloqot uslubi, salbiy emotsiyalar hamda nutqiy cheklovlar kabi asosiy turlarga ajratib ko‘rsatadi.

«Psixologik qiyinchiliklar» atamasi odatda sheriklar o‘rtasidagi hamkorlikning buzilishi, muloqotning noxush kechishi, emotsional noqulaylik va zo‘riqish holatlariga taalluqli bo‘lib, ular inson xatti-harakatiga bevosita salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. «Muloqotdagi to‘siqlar» esa ko‘pincha nizolarni yuzaga chiqaruvchi yoki ularni kuchaytiruvchi omillar majmuasini anglatadi.

Inson muloqot jarayonida paydo bo‘ladigan nizoli vaziyatlardan chiqish yo‘lini topa olmasa, oddiy kundalik qiyinchiliklarni yenga bilmasa, natijada bu holatlar psixik va jismoniy sog‘liqqa salbiy ta‘sir etib, stresslarga sabab bo‘ladi. Shu bois psixologlar bunday muammolarni shaxslararo muomala to‘siqlari sifatida talqin etishadi. Bunday to‘siqlar ko‘pincha shaxslarning ehtiyoj va maqsadlari o‘zaro mos kelmaganda yuzaga chiqadi.

Asabiylik va jizzakilikni keltirib chiqaruvchi omillardan biri shaxsning o‘z faoliyatiga bo‘lgan qiziqishining susayishi yoki butunlay yo‘qolishidir. Bu holat ishga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirib, emotsional zo‘riqish, agressiv kayfiyat hamda turli qarama-qarshiliklarni yuzaga keltiradi. Bunga qo‘shimcha ravishda, xarakterlar o‘rtasidagi nomutanosiblik ham muloqotdagi jiddiy qiyinchiliklardan biridir. Aksar oilaviy tortishuvlar, qo‘shnilar yoki hamkasblar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar ko‘pincha «xarakterlarimiz mos kelmadi» degan izoh bilan tushuntiriladi.

Yana bir muhim to‘siq nevroz bilan bog‘liq bo‘lib, uning asosiy sababi kuchli emotsional stress yoki chiqib ketish imkoniyati bo‘lmagan psixik jarohatlovchi vaziyatdir. Aslida qisqa muddatli nevroz holatlari ko‘pchilikda uchraydi, biroq bunday shaxslar nizolarga tez-tez duch keladi va ular odatdagidan og‘irroq kechadi. Shuningdek, qayg‘u va tushkunlik oqibatida vujudga keladigan muloqotdagi qiyinchiliklar ham deyarli

har bir odam hayotida uchraydi. Qattiq g'am inson ruhiyatini shu qadar band etadiki, boshqa kishilarga e'tibor qaratish qiyinlashadi. Bu holat fojeali voqealar, hayotdan norozilik yoki jismoniy azoblar oqibatida yuzaga kelishi mumkin. Ammo vaqt o'tishi bilan qayg'u asta-sekin yengillashadi, shuning uchun azob chekayotgan insonni ortiqcha bezovta qilmaslik kerak.

Eng og'ir to'siqlardan biri g'azab tufayli yuzaga keladi. Chunki g'azab holatida insonning jismoniy va psixik energiyasi keskin ortadi, natijada u so'z yoki agressiv xatti-harakatlar orqali bu energiyani tashqariga chiqarishga intiladi. Shu sababli, g'azablangan insonning sabr-toqatini sinash o'ta xavfli bo'lib, muloqotning yanada keskinlashishiga olib kelishi mumkin.

Hazar va jirkanish bilan bog'liq to'siqlar kundalik muloqotda ko'p uchraydigan hodisalardan sanaladi. Masalan, noxush hid, qo'lning ter bosishi yoki suhbatdoshning haddan ortiq yaqinlashib, shaxsiy hududni buzishi muloqot ishtirokchisida salbiy his uyg'otadi. Shu bois inson o'zining gigiena qoidalariga qat'iy rioya etishi, o'zini tutish odatlariga e'tibor qaratishi muomala samaradorligini ta'minlash uchun zarurdir.

Shaxslararo aloqalarda qo'rquv to'sig'i eng yengib o'tish qiyin bo'lgan psixologik to'siqlardan biri hisoblanadi. Uning sabablari turlicha bo'lishi mumkin: ichki kechinmalar, salbiy tajriba yoki noto'g'ri taxminlar natijasida yuzaga keladi. Qo'rquvni yengib o'tish esa ushbu sabablarni qanchalik to'g'ri anglash va ularni to'g'ri talqin etishga bog'liqdir.

Uyat va ayb hissidan kelib chiqadigan to'siqlar ham muloqot jarayonida tez-tez uchrab turadi. Ular o'zining yoki boshqalarning o'rinsiz xatti-harakatlari natijasida paydo bo'ladi. Ko'pincha haddan tashqari tanqid yoki ortiqcha maqto'v uyat tuyg'usini kuchaytiradi. Ba'zi kishilar esa uyatdan mutlaqo xoli bo'lib, uni psixologik himoya vositasi sifatida qabul qiladilar: ular o'zlarini «bunday xatti-harakat hammada bo'lishi mumkin» deb ishontiradi, tanqidni e'tiborsiz qoldiradi va o'zini oqlovchi sabablarni topishga urinadi. Lekin uyat yoki aybni haddan tashqari kuchli yoki umuman sezmaslik – har ikki holatda ham muloqot sifatini pasaytiradi. Muloqotdagi qiyinchiliklarning yana bir guruhi texnika va ko'nikmalarning yetarli emasligi bilan bog'liq. Ayrim shaxslar muomala usullaridan g'arazli maqsadlar yo'lida foydalanadi. Shuning uchun «manipulyatsiya», «pozitsiya»,

«rol», «niqob» kabi tushunchalarning mazmunini o'zlashtirish, suhbatdoshning xatti-harakatlarini anglashda yordam beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida ularning psixologik tayyorgarligi, shaxsiy-kasbiy sifatlari, pedagogik va psixologik jihatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Kelajak avlodni tarbiyalashda tarbiyachining shaxsi, uning kasbiy kompetentligini belgilovchi omillar sifatida asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, tarixiy ta'limotlarda ham tarbiyachilar faoliyatida pedagogik va psixologik omillarning muhimligi ta'kidlab kelingan. Tadqiqotimizning navbatdagi bosqichida esa, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining faoliyatida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga oid ilmiy mushohadalar yoritib beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Дж.Хоманс. Введение в историю мировой культуры. Кн..2. СПб., 2001. – 28-32 с.
2. Мид Дж.Г. Интернализированные другие и самость / Дж.Г. Мид // Американская социологическая мысль. М.: Изд-во МГУ, 1994. С. - 224-227.
3. Мид Дж.Г. От жеста к символу / Дж.Г. Мид // Американская социологическая мысль. М.: Изд-во МГУ, 2004. С. - 215-224.
4. Гоффман. Е. Т. хаёт ва санъат. Хатлар, баёлотлар, хужжатлар / Пер. у билан. Компилятсийа қилинган К. Гйунтсел .. - М . : Раинбоу, 2007. - 464 с.
5. Фрейд З. Введение в психоанализ. Лекции. – СПб.: Питер, 2007. - 384 с.
6. Фрейд З. Введение в психоанализ. Лекции. – СПб.: Питер, 2007. - 384 с.

7. Попова Т.П. Формирование иноязычной коммуникативной компетенции у студентов заочного отделения языкового вуза: монография/ Т.П. Попова. Нижегород.гос.ун-т им.Н.И.Лобачевского – Н.Новгород: 2013.–186 с.

8. Мишина Ю.Д. Психолого-педагогические условия развития ответственности у студентов педагогических вузов: дисс. канд. пед. наук / Ю.Д.Мишина. – Томск, 2002. – 261 с.

9. Bodalev A.A., Stolin V.V. Общaya psixodiagnostika. –SPb.: «Rech»
2000. – 440 с.